



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
“O‘ZMILLIYBANK” AJ
QO‘SHMA QARORI

**Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchi talabalarining amaliyotlarini
moliyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘rsida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarori (keyingi o‘rinlarda – Qaror)dagi belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “O‘zmilliybank” AJ qaror qiladi:

1. “Kelajakka qadam” dasturi doirasida bitiruvchi talabalarning amaliyotlarini moliyalashtirish tartibi (keyingi o‘rinlarda – Tartib) **ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

2. Barcha oliy ta’lim tashkilotlari rektorlari hamda direktorlariga:

“Kelajakka qadam” dasturi doirasida bitiruvchi talabalarning amaliyotlarini moliyalashtirish tartibidagi belgilangan vazifalarni to‘laqonli amalga oshirish yuzasidan zarur choralarni ko‘rish;

“Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishida har bir oliy ta’lim tashkilotida tanlovlar (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) tashkil etish;

Tanlovda ishtirok etish istagidagi talabalarning hujjatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha 7 nafardan kam bo‘lmagan tarkibda tanlov komissiyasi tashkil etish;

10 kun muddatda Tartibning mazmun-mohiyatini bitiruvchi talabalarga yetkazish;

salohiyatli ish beruvchi tashkilotlar, shu jumladan, yirik korxonalarning oliy ma’lumotli mutaxassislariga ehtiyojini aniqlash va mutaxassislariga qo‘yiladigan talablarni shakllantirib borish;

kadrlarning asosiy iste’molchilari bo‘lgan ish beruvchi korxona va tashkilotlar bilan tanlovlarda ishtirok etish istagidagi talabalarni kelgusida ish bilan ta’minlanishini nazarda tutuvchi amaliyotlarini tashkil etish bo‘yicha dastlabki shartnomalarni rasmiylashtirish;

tanlovlarda ishtirok etish istagidagi talabalar bo‘yicha talab etilgan hujjatlarni rasmiylashtirish va tanlovlarga taqdim etilishini ta’minlash;

tanlovlar natijalariga ko‘ra ijobiy baholangan talabalarning haq to‘lanadigan amaliyotlarini tashkil etish bo‘yicha oliy ta’lim tashkiloti, ish beruvchi tashkilotlar va talabalar o‘rtasidagi uch tomonlama kelishuv shartnomalarini rasmiylashtirish. Bunda talabalarning oliy ta’lim muassasasini tamomlagandan keyin shartnoma rasmiylashtirilgan korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinishini ta’minlash;

belgilangan vazifalar yuzasidan doimiy monitoring yuritish hamda tahliliy ma'lumotlar tayyorlab borish;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan belgilangan shakldagi ma'lumotlarni har oyning 25-sanasiga qadar vazirlikka (kelajakkaqadam@edu.uz elektron pochta orqali) taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

Belgilansinki, "Kelajakka qadam" dasturi, jumladan, "Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish" yo'nalishini amalga oshirish bo'yicha shaxsiy javobgarlik har bir oliy ta'lim tashkiloti rektoriga (direktoriga) yuklatiladi.

2. Oliy ta'lim tashkilotlari departamenti (A.Mamanazarov), "Kelajakka qadam" markazi E.Xoshimovga:

mazkur qarordagi belgilangan vazifalarni amalga oshirilgan ishlarni doimiy muvofiqlashtirib borsin;

amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha rahbariyatga axborot kiritib borsin.

3. Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi (A.Abdullaev) "Kelajakka qadam" dasturi doirasida bitiruvchi talabalarning amaliyotlarini moliyalashtirish tartibidagi belgilangan tanlovlarni shaffof o'tkazish hamda ushbu bitiruvchilarning kelgusidagi faoliyatini monitoring qilish imkoniyatini nazarda tutuvchi elektron platformani yaratsin va uni doimiy, samarali faoliyat yuritishini ta'minlasin.

4. Mazkur qo'shma qaror ijrosini nazorat qilish oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari S. Radjabov va "O'zmilliybank" AJ boshqaruvi raisi o'rinbosari B.Mirodovidov zimmasiga yuklansin.

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vaziri**

Toshkent sh.,
2026-yil "13" - fevral, 4-914 -son



K. Sharipov

"O'zmilliybank" AJ boshqaruv raisi

Toshkent sh.,
2026-yil "13" - fevral, 2 -son



A.Mirsoatov

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
hamda "O'zmilliybank" AJning
2026-yil "13" fevraldagi 7-q/q
va 2-son qo'shma qaroriga
ilova

“KELAJAKKA QADAM” DASTURI DOIRASIDA BITIRUVCHI TALABALARNING AMALIYOTLARINI MOLİYALASHTIRISH TARTIBI

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur “Kelajakka qadam” dasturi doirasida bitiruvchi talabalarning amaliyotlarini moliyalashtirish tartibi (keyingi o‘rinlarda – Tartib) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–61-son qarori (keyingi o‘rinlarda – Qaror)ga asosan ishlab chiqildi.

1.2. Ushbu Tartibdan ko‘zlangan maqsad oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchi kurs talabalarining haq to‘lanadigan amaliyotini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

1.3. “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishi bo‘yicha har bir oliy ta’lim tashkilotida tanlovlar (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) tashkil etiladi.

1.3.1. Tanlovda ishtirok etish istagidagi bitiruvchi kurs talabalarning hujjatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha 7 nafardan kam bo‘lmagan tarkibda (*tarkib soni toq bo‘lishi sharti bilan*) tanlov komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) tashkil etiladi.

1.3.2. Oliy ta’lim tashkiloti rektori (direktori) yoki uning vazifasini bajaruvchisi Komissiya raisi hisoblanadi.

1.3.2.1. Komissiya tarkibi a’zolarining funksional vazifalari hamda o‘quv rejalarida belgilangan amaliyot davridan kelib chiqib, tanlovlarni o‘tkazishning aniq muddatlari Komissiya raisi tomonidan belgilanadi.

1.3.3. Komissiyalar tarkibiga oliy ta’lim tashkiloti, ish beruvchi korxona va tashkilotlar, tijorat banklari hamda jamoatchilik vakillari jalb qilinadi.

1.3.4. Tanlovlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maxsus elektron platformasi orqali o‘tkaziladi.

1.4. “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishi bo‘yicha Tanlovda ishtirok etish uchun talabalar amaliyotiga mas’ul bo‘linma tomonidan Komissiyaga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- talabaning shaxsiy ma’lumotnomasi;
- talabaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma (transkript HEMIS tizimi orqali);

- oliy ta'lim tashkiloti hamda ish beruvchi korxona va tashkilotlar bilan muayyan talabalarning kelgusida ish bilan ta'minlanishini nazarda tutuvchi haq to'lanadigan kasbiy amaliyotlarini tashkil etish to'g'risidagi dastlabki hamkorlik shartnoma nusxasi (1-ilova).

1.5. Tanlovda ishtirok etuvchi talabgorlarga quyidagi talablar belgilanadi:

bitiruvchi kurs talabasi bo'lishi;

amaliyot davri uzluksiz (o'quv jarayonidan to'liq ajralgan) o'quv rejada belgilangan (kamida bir oy) amaliyot davrida bo'lishi.

1.6. Komissiyalar tomonidan ushbu hujjatlar besh kun muddatda ko'rib chiqilib, g'oliblar aniqlanadi va natijalar e'lon qilinadi.

1.7. Komissiya bayonnomasida talabaning amaliyot davri va ish beruvchi (amaliyot ob'ekti)ning faoliyat yo'nalishi, joylashuvi va boshqa ko'rsatkichlardan kelib chiqib, talabaga to'lanadigan bazaviy hisoblash miqdorining **o'n baravarigacha** belgilanadi.

1.8. "Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish" yo'nalishi bo'yicha talabalarni ochiq tanlovga jalb qilish hamda faol ishtirok etishlari bo'yicha shaxsiy javobgarlik har bir oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) zimmasiga yuklatiladi.

II. Oliy ta'lim tashkilotining vazifalari

2.1. Ochiq tanlovlarda talabalarning amaliyotlarini moliyalashtirilishini ta'minlash uchun oliy ta'lim tashkiloti quyidagilarni amalga oshiradi:

salohiyatli ish beruvchi tashkilotlar, shu jumladan, yirik korxonalarning oliy ma'lumotli mutaxassislariga ehtiyojini aniqlaydi va mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni shakllantirib boradi;

"Kelajakka qadam" dasturi doirasida maqsadli kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yadi hamda individual kasbiy amaliyot dasturini ishlab chiqadi;

kadrlarning asosiy iste'molchilari bo'lgan ish beruvchi korxona va tashkilotlar bilan tanlovlarda ishtirok etish istagida bo'lgan talabalarni kelgusida ish bilan ta'minlanishini nazarda tutuvchi amaliyotlarini tashkil etish bo'yicha **dastlabki hamkorlik shartnomalari (1-ilova)** hamda o'quv jarayonlari, jumladan, talabaning o'zlashtirish ko'rsatkichlari va kasbiy amaliyotni tashkil etishga oid hujjatlarni rasmiylashtirib, Komissiyalarga taqdim etadi;

tanlovlar natijalariga ko'ra g'olib bo'lgan talabalar to'g'risidagi Komissiyalarning majlis bayonnomalari nusxasini, talabalarga haq to'lanadigan amaliyotlarini tashkil etish bo'yicha oliy ta'lim tashkiloti, ish beruvchi tashkilotlar va talabalar o'rtasida uch tomonlama kelishuv shartnomalari nusxasini **(2-ilova)**, har bir tanlov g'olibi uchun tasdiqlangan individual kasbiy amaliyot dasturi va qo'shimcha talab etiladigan hujjatlar to'plamini "Kelajakka qadam" markazi hududiy bo'linmalariga taqdim etadi;

korxonaning buyurtmasiga ko'ra tanlov g'olibi bo'lgan talabalarni amaliyotga yuboradi va amaliyot davrida talabaga bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorida har oylik to'lovni (ish haqi va unga hisoblangan ijtimoiy soliq) amalga oshirib borilishini ta'minlaydi;

tanlov g'olibi bo'lgan talabalarning kasbiy amaliyoti doirasida ish beruvchi korxona (tashkilot)ning asosli taklifiga ko'ra xorijiy amaliyotni tashkil etish zarurati yuzasidan chet eldagi oliy ta'lim tashkiloti hamda korxonalardagi qisqa muddatli o'quv kurslariga yuborilishi tavsiya etilgan talabaga xorijiy amaliyot dasturi bo'yicha bir nafar talaba uchun talab etiladigan mablag' bo'yicha asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha miqdorida bir martalik to'lovni amalga oshiradi;

talabalarga haq to'lanadigan amaliyotlarini tashkil etish bo'yicha oliy ta'lim tashkiloti, ish beruvchi tashkilotlar va talabalar o'rtasida uch tomonlama kelishuv shartnomalarida belgilangan talablarning bajarilishi ustidan doimiy monitoringini olib boradi.

III. Komissiyaning vazifalari

3.1. Oliy ta'lim tashkiloti Komissiyasi tanlov natijalariga ko'ra g'olib talabalarni aniqlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

belgilangan muddatlarda tanlovlar o'tkazadi;

Tanlov g'oliblarini aniqlashda asosiy mezon sifatida ish beruvchining talablari va talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichini inobatga oladi;

tanlov natijalariga ko'ra tanlov g'oliblari ko'rsatilgan holda tanlov natijalari yuzasidan bayonnoma rasmiylashtiradi;

Komissiya bayonnomasida talabaning amaliyot davri va ish beruvchi (amaliyot ob'ekti)ning faoliyat yo'nalishi, joylashuvi va boshqa ko'rsatkichlardan kelib chiqib, talabaga to'lanadigan bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan aniq miqdorini (baravari) belgilaydi.

3.2. Talabalarning kasbiy amaliyoti doirasida ish beruvchi korxona (tashkilot)ning asoslangan taklifiga ko'ra talabaning xorijiy amaliyotini tashkil etish zarurati yuzaga kelganda Komissiya talabaga xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari yoki xorijiy korxonalarga qisqa muddatli o'quv kurslariga yuborilishiga tavsiya berilishi mumkin. Bunda:

- amaliyot o'tash rejalashtirilgan xorijiy oliy ta'lim tashkiloti yoki xorijiy korxona bilan amalga oshirilgan o'zaro kelishuv to'g'risidagi ma'lumot talab etiladi;

- talabgordan xorijga yuborilayotgan davlatning tili yoki ingliz tili bo'yicha xorijiy tilni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olinadigan kamida B2 darajadagi sertifikat talab etiladi;

- amaliyotga yuborilayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotining xalqaro reytingdagi o'rniga ustuvorlik beriladi;

- talabalarning xorijiy amaliyotining dasturi, maqsadi hamda kutilayotgan natijalariga alohida e'tibor beriladi.

3.3. Imzolangan uch tomonlama shartnomaga va individual kasbiy amaliyot dasturiga tomonlar kelishuvga ko'ra qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

~~3.4. Komissiya tarkibiga kiritilgan "O'zmilliybank" AJning vakillari tomonidan mavjud moliyaviy mablag'lar va shunga ko'ra navbatdagi tanlovlarni o'tkazishning maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan xulosa beriladi.~~

IV. Tijorat banklari ("Kelajakka qadam" markazi)ning vazifalari

4.1. Tijorat banklari ("Kelajakka qadam" markazi) tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

sohalar bo'yicha tanlovlar natijalariga ko'ra g'olib bo'lgan talabalar to'g'risidagi Komissiyalarning majlis bayonnomalari nusxalari, talabalarga haq to'lanadigan amaliyotlarini tashkil etish bo'yicha oliy ta'lim tashkiloti, ish beruvchi tashkilotlar va talabalar o'rtasida uch tomonlama kelishuv shartnomalari nusxalari, har bir tanlov g'olibi uchun tasdiqlangan individual kasbiy amaliyot dasturi va qo'shimcha talab etiladigan hujjatlar to'plamini belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;

ish beruvchi korxonalarning buyurtmasiga ko'ra tanlov g'olibi bo'lgan talabalarni amaliyot dasturi bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorida har oylik to'lovlar uchun zarur mablag'larni mazkur talabalar tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining shaxsiy g'azna hisob-varaqlariga (davlat oliy ta'lim tashkilotlariga) yoki tijorat banklaridagi hisob-kitob raqamlariga (xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari filial va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga) kasbiy amaliyotlar boshlanishidan 7 ish kunidan avval (oldin) o'tkazib beradi;

tanlov g'olibi bo'lgan talabalarning kasbiy amaliyoti doirasida ish beruvchi korxona (tashkilot)ning asosli taklifiga ko'ra xorijiy amaliyotni tashkil etish zarurati yuzasidan chet eldagi oliy ta'lim tashkiloti hamda korxonalarda qisqa muddatli o'quv kurslariga yuborilishi tavsiya etilgan talabalarning xorijiy amaliyot dasturi bo'yicha tegishli mablag'lar (bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha miqdorida) ushbu toifadagi talabalar tahsil olayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining shaxsiy g'azna hisob-varaqlariga qisqa muddatli o'quv kurslari boshlanishidan 10 ish kunidan avval (oldin) o'tkazib beradi;

hamkor oliy ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan Komissiya tarkibida faoliyat yuritishi uchun o'z vakillarini kiritish va ular orqali navbatdagi tanlov uchun moliyaviy mablag'larning mavjudligi bo'yicha xulosalar taqdim etib borish;

amalga oshirilgan ishlar natijalari yuzasidan doimiy ravishda hisobot tayyorlaydi va tegishli Boshqaruv raisi o'rinbosariga axborot kiritib boradi.

V. Tomonlarning moliyaviy munosabatlari

5.1. "Kelajakka qadam" dasturi doirasida tijorat bank va oliy ta'lim tashkiloti o'rtasida talabalarning haq to'lanadigan kasbiy amaliyotini (qisqa muddatli kurslarni) moliyalashtirish mexanizmini huquqiy tartibga solish hamda ajratigan

mablag'larning tog'ri ishlatilishini ta'minlash maqsadida 2 tomonlama kelishuv shartnomasi imzolanadi **(3-ilova)**.

5.2. Kasbiy amaliyotning har bir oyi uchun pul mablag'lari Tijorat banklari tomonidan alohida-alohida ajratiladi hamda oliy ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim etilgan amaliyotga doir tegishli oylik monitoring hisobotiga asosan moliyalashtiriladi.

5.3. Mablag'larning maqsadsiz ishlatilishi holatlari aniqlangan hollarda, quyidagi tartibda harakat qilinadi:

5.3.1. Tijorat bank tomonidan aniqlangan holat bo'yicha xulosa rasmiylashtiriladi va oliy ta'lim tashkilotiga yozma ogohlantirish xati yuboriladi.

5.3.2. Ogohlantirishda aniqlangan kamchiliklarni 10 ish kuni ichida bartaraf etish talabi qo'yiladi.

5.2.3. Belgilangan muddatda kamchilik bartaraf etilmasa, Tijorat bank tomonidan mablag'larning maqsadsiz ishlatilgan qismi bo'yicha qaytarish to'g'risida rasmiy talabnoma tegishli oliy ta'lim tashkilotiga yuboriladi.

5.3.4. Mablag'larning maqsadsiz ishlatilgan qismi tegishli vakolatli bankga imzolangan shartnoma asosida qaytariladi.

5.4. Zarurat tug'ilganda, tijorat banki mablag'larning maqsadsiz ishlatilgan qismini undirish va to'lovlarni vaqtincha to'xtatish choralarini ko'radi hamda holat yuzasidan tegishli huquqiy chora-tadbirlarni belgilaydi.

VI. Yakuniy qoidalar

6.1. Mazkur Tartib talablariga rioya etilishini nazorat qilish va uni qonunchilikdagi o'zgarishlardan kelib chiqib, o'z vaqtida yangilab borish va unga o'zgartirishlar kiritish vazifasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi hamda "O'zmilliybank" AJ zimmasiga yuklanadi.

6.2. Mazkur Tartib bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

Oliy ta’lim tashkiloti
hamda _____ korxonasi o’rtasida
DASTLABKI NAMUNAVIY HAMKORLIK SHARTNOMASI № _____

Toshkent shahri

“ _____ ” _____ 2026-yil

Mazkur ikki tomonlama hamkorlik shartnomasi (keyingi o’rinlarda “shartnoma”, deb yuritiladi) **Oliy ta’lim tashkiloti** (keyinchalik “_____”, deb yuritiladi) hamda _____ **korxonasi** (keyingi o’rinlarda “Korxona”, deb yuritiladi) tomonidan tuzildi.

I. Shartnomaning maqsadi

1.1. “Kelajakka qadam” dasturi doirasida talabalarining o’quv jarayonida korxona (tashkilot)da amaliyotini tashkil etish tartibi (keyingi o’rinlarda – Tartib) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko’maklashish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ–61-son qarori ijrosini hamkorlikda ta’minlash.

1.2. “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo’nalishida o’tkaziladigan tanlovlar natijasiga ko’ra g’olib bo’lgan talabalarni kelgusida ish bilan ta’minlashni nazarda tutgan holda haq to’lanadigan amaliyotlarini tashkil etish.

II. Hamkorlik yo’nalishi

2.1. Kasbiy amaliyot asosida o’qitishni tashkil etish, korxona uchun yuqori malakali kadrlarni maqsadli tayyorlash, talabalarga mutaxassisligi bo’yicha amaliy bilimlarni egallashi uchun sharoit yaratish, talabalar amaliyotini tashkil etish va ularni ishga joylashtirish.

III. Tomonlarning huquqlari

3.1. Oliy ta’lim tashkiloti tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

3.1.1. Talabalar amaliyotini o’tkazish, “Kelajakka qadam” dasturi doirasida o’qitishni tashkil etish uchun korxonaning intellektual va moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini o’rganish va ushbu o’rganishga asosan tegishli taklif kiritish.

3.1.2. Tanlov natijasi bo’yicha tanlov komissiyasiga takliflar kiritish.

3.1.3. Ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish bo’yicha takliflar kiritish.

3.1.4. Tomonlar shartnoma bandlarini yuqori saviyada bajarish bo’yicha o’zaro qo’shma qarorlar qabul qilish.

3.1.5. “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo’nalishida tanlovlarga talabalarining ishtiroki bo’yicha tashabbus ko’rsatish.

3.2. Korxona tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

3.2.1. “Kelajakka qadam” dasturi doirasida o’qitishni tashkil etish bo’yicha tegishli hujjatlar, dasturlar, shartnomalar tuzishda, shuningdek, mutaxassislarning malaka talablarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

3.2.2. Oliy ta’lim tashkilotidagi tegishli ta’lim yo’nalishlari va mutaxassislarning o’quv reja va dasturlari bilan tanishish, ularni ishlab chiqarish talablariga muvofiqlashtirish bo’yicha takliflar berish.

3.2.3. Bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiya ishlari himoyasida Davlat attestatsiyasi komissiyasi a’zosi sifatida ishtirok etish bo’yicha taklif kiritish.

3.2.4. Yuqori malakali kadrlarni maqsadli tayyorlash uchun zarur hollarda qo’shimcha o’quv kurslari tashkil etish bo’yicha takliflar berish.

IV. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Oliy ta'lim tashkiloti tomonidan:

- 4.1.1. "Kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish" yo'nalishida tanlovda talabalarning ishtirokini ta'minlash.
- 4.1.2. Tanlov komissiyasiga talabalarning tegishli hujjatlarini o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash.
- 4.1.3. Tanlov komissiyasi yoki korxona tomonidan zaruratga ko'ra so'ralgan tegishli hujjatlarni qisqa muddatda sifatli taqdim etilishini ta'minlash.
- 4.1.4. Korxona va talabalarni tanlov natijalari bo'yicha muntazam xabardor etib borish.
- 4.1.5. "Kelajakka qadam" dasturi doirasida maqsadli kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish hamda kasbiy amaliyot dasturini ishlab chiqish.
- 4.1.6. Ish beruvchining buyurtmasiga ko'ra tanlov g'olibi bo'lgan talabani amaliyotga yo'llash va amaliyot davrida talabaga oylik to'lov to'lash. Bunda, oylik to'lovning aniq miqdorini (oylik to'lov miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha) Komissiya tomonidan belgilanishini hamda kasbiy amaliyot boshlanishidan avval amalga oshirib borishni ta'minlash.
- 4.1.7. Har o'quv yili uchun korxona bilan kelishilgan holda talabalar amaliyot rejasini va dasturini tuzish, tasdiqlash.
- 4.1.8. Har o'quv yilida amaliyot rejasiga tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalarni korxonaga maqsadli biriktirish.
- 4.1.9. Oliy ta'lim tashkiloti tomonidan amaliyot rahbarligiga malakali professor-o'qituvchilarni biriktirish.
- 4.1.10. Korxonaning ilmiy-texnik yutuqlarini ommaviylashtirishda faol ishtirok etish.
- 4.1.11. Korxonaga bitiruvchi to'g'risida ma'lumotlar, tavsifnomalar berish.
- 4.1.12. Korxonada amaliyot o'tagan talabalarni korxonaning ehtiyojiga asosan korxonaga ishga taqsimlash, ishga yo'llanma berish, ularning korxonadagi mehnat faoliyati monitoringini olib borish.
- 4.1.13. Korxonaning tajribali mutaxassislarini o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqishga jalb qilish, uni korxonaning ishlab chiqarish talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha bergan takliflarini inobatga olish.
- 4.1.14. Ishlab chiqarishdagi ilmiy muammolarni hal qilish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.
- 4.1.15. Korxonada faoliyat ko'rasatayotgan ishchi-xodimlar mehnatini muhofaza qilishda qo'yilgan talablar, hamda ishchi zonadagi havosini sanitar me'yorlarga moslashtirish uchun zamonaviy takomillashtirilgan tozalovchi uskunalar haqida ma'lumotlar yuzasidan takliflar berish.

4.2. Korxona tomonidan:

- 4.2.1. "Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish" yo'nalishida tanlovlar ishtirokchisi bo'lgan quyidagi talabalardan ____ nafarining o'qishi yakunlangandan so'ng, ushbu tashkilotda ish bilan ta'minlash:

T/r	Talabani F.I.Sh.	Yo'nalish (mutaxassislik) kodi va nomi	Bosqich	Amaliyot muddati	
				boshlanishi	tugashi
1.					
2.					
.....					

- 4.2.2. Amaliyot o'tayotgan talabalarga amaliyot rahbarligi uchun korxonadan malakali mutaxassislarni rahbar etib biriktirish.
- 4.2.3. Korxona uchun maqsadli tayyorlanayotgan bitiruvchilarni kasbiy malaka va kompetentligini aniqlash bo'yicha sinov hamda suhbat o'tkazish.
- 4.2.4. Amaliyot o'tash uchun amaliyotchilarga zarur bo'lgan texnik hujjat va ma'lumotlar bilan tanishishlariga sharoit yaratish.
- 4.2.5. Talabalarning amaliyotini o'tkazishni amaliyot dasturiga muvofiq tashkil etish.
- 4.2.6. Mehnat muhofazasi bo'yicha umumiy va ish joylarida majburiy yo'l-yo'riqlar berilishini ta'minlash va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish. Zaruriy hollarda talabalar uchun ish o'rni va funksional vazifalari bo'yicha o'quv-seminarlarini tashkil etish.

V. Shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish

- 5.1. Ushbu shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 1 (bir) yilgacha amal qiladi.

VI. Qo'shimcha shartlar

- 6.1. Tomonlarning yozma murojaatiga ko'ra ushbu hamkorlik shartnomasiga "Kelajakka qadam" dasturi doirasida talabalarning o'quv jarayonida korxona (tashkilot)da amaliyotini tashkil etish tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga

joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–61-son qaroriga zid bo‘lmagan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo‘yicha tomonlar samarali natijaga erishish maqsadida o‘zaro kelishuv asosida qo‘shimcha kelishuvlar va rejalar qabul qilishi va tasdiqlashi mumkin. Ular ikki tomonlama imzolangandan so‘ng, kuchga kiradi va ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo‘lib hisoblanadi.

VII. Nizolarni hal qilish tartibi

7.1. Ushbu shartnoma yuzasidan yoki u bilan bog‘liq holda tomonlar o‘rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar tomonlar o‘rtasida muzokaralar olib borish yo‘li bilan hal etiladi.

7.2. Muzokaralar olib borish yo‘li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, shartlarini o‘zgartirish, bandlarining buzilishi, ijro etilishi, bekor bo‘lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar bo‘yicha tomonlar, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

7.3. Talabalar kasbiy amaliyot o‘qitishini tashkil etish va o‘tkazishda tomonlar Ta‘lim to‘g‘risidagi hamda Mehnat qonunchiligiga binoan ish olib borishlari shart.

VIII. Konfidensiallik

8.1. Tomonlar ushbu shartnoma doirasida olgan har qanday ma‘lumotni maxfiy, deb hisoblaydilar va bu ma‘lumotni uchinchi shaxslarga oshkor etmaslik majburiyatini oladilar.

IX. Yakunlovchi qoida

9.1. Korxona ochiq tanlov g‘oliblari tomonidan individual kasbiy amaliyot dasturini muvaffaqiyatli tugatgan talabani ishga olishi lozim, aks holda individual kasbiy amaliyot dasturida o‘qitish uchun “O‘zmilliybank” AJ tomonidan ajratilgan pul mablag‘lari summasi 1 oy muddatda oliy ta‘lim tashkilotiga qaytariladi, o‘z navbatida, ushbu mablag‘ 10 kun muddatda “O‘zmilliybank” AJga o‘tkazib beriladi.

X. Tomonlarning rekvizitlari va imzolari

Oliy ta‘lim tashkiloti

Pochta manzili:

100100, Toshkent shahar,, 25-uy,

E-mail:

Telefon:, Faks:

Rekvizitlari:

O‘zR Moliya vazirligi g‘aznachiligi

H/R: 2340200030010000.....

STIR: 201122919; MFO: 000.....

Markaziy bank HKKM Toshkent shahar

Bosh Boshqarmasi

Sh/hv: 400110860262877094.....

STIR: 2010.....

Korxona

Rektor _____ F.I.Sh.

Rahbar _____ F.I.Sh.

*“Kelajakka qadam” dasturi doirasida
Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy
amaliyotini tashkil etish tartibiga
2-ilova*

**Oliy ta’lim tashkiloti, talaba F.I.Sh.
hamda _____ korxonasi o‘rtasida
UCH TOMONLAMA NAMUNAVIY HAMKORLIK SHARTNOMASI № ____**

Toshkent shahri

“_____” _____ 2026-yil

Mazkur uch tomonlama hamkorlik shartnomasi (keyingi o‘rinlarda “shartnoma”, deb yuritiladi) Oliy ta’lim tashkiloti (keyingi o‘rinlarda “_____”, deb yuritiladi), talaba F.I.Sh. hamda _____ korxonasi (keyingi o‘rinlarda “Korxona”, deb yuritiladi) tomonidan tuzildi.

I. Shartnomaning maqsadi

- 1.1. “Kelajakka qadam” dasturi doirasida talabalarining o‘quv jarayonida korxona (tashkilot)da amaliyotini tashkil etish tartibi (keyingi o‘rinlarda – Tartib) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–61-son qarori ijrosini hamkorlikda ta’minlash.
- 1.2. “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishida o‘tkaziladigan tanlovlar natijasiga ko‘ra g‘olib bo‘lgan talabalarni kelgusida ish bilan ta’minlashni nazarda tutgan holda haq to‘lanadigan amaliyotlarini tashkil etish.

II. Hamkorlik yo‘nalishi

- 2.1. Kasbiy amaliyot asosida o‘qitishni tashkil etish, korxona uchun yuqori malakali kadrlarni maqsadli tayyorlash, talabalarga mutaxassisligi bo‘yicha amaliy bilimlarni egallashi uchun sharoit yaratish, talabalar amaliyotini tashkil etish va ularni ishga joylashtirish. Kasbiy amaliyot doirasida ish beruvchi korxona (tashkilot)ning asoslangan taklifiga ko‘ra xorijiy amaliyotni taqozo etgan taqdirda talabani xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga qisqa muddatli o‘quv kurslariga yuborilishini tashkil etish.

III. Tomonlarning huquqlari

3.1. Oliy ta’lim tashkiloti tomonidan:

- 3.1.1. Talabalar amaliyotini o‘tkazish, “Kelajakka qadam” dasturi doirasida o‘qitishni tashkil etish uchun korxonaning intellektual va moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini o‘rganish va ushbu o‘rganishga asosan tegishli taklif kiritish.
- 3.1.2. Tanlov natijasi bo‘yicha tanlov komissiyasiga takliflar kiritish.
- 3.1.3. Texnologik jarayonlar samaradorligini oshirish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish bo‘yicha takliflar kiritish.
- 3.1.4. Tomonlar shartnoma bandlarini yuqori saviyada bajarish bo‘yicha o‘zaro qo‘shma qarorlar qabul qilish.
- 3.1.5. “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishida tanlovlarda talabalarining ishtiroki bo‘yicha tashabbus ko‘rsatish.

3.2. Korxona tomonidan:

- 3.2.1. “Kelajakka qadam” dasturi doirasida o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha tegishli hujjatlar, dasturlar, shartnomalar tuzishda, shuningdek, mutaxassislarning malaka talablarini ishlab chiqishda ishtirok etish.
- 3.2.2. Oliy ta’lim tashkilotidagi tegishli ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘quv-reja va dasturlari bilan tanishish, ularni ishlab chiqarish talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha takliflar berish.
- 3.2.3. Bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiya ishlari himoyasida Davlat attestatsiyasi komissiyasi a‘zosi sifatida ishtirok etish bo‘yicha taklif kiritish.
- 3.2.4. Yuqori malakali kadrlarni maqsadli tayyorlash uchun zarur hollarda qo‘shimcha o‘quv kurslari tashkil etish bo‘yicha takliflar berish.

3.3. Talaba tomonidan:

- 3.3.1. “Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy amaliyotini tashkil etish” yo‘nalishida tanlovda ishtirok etish.
- 3.3.2. Korxonaning buyurtmasiga ko‘ra tanlov g‘olibi sifatida kasbiy amaliyot davrida bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorda oylik to‘lovini kasbiy amaliyot boshlanishidan avval 1 hafta muddat ichida olish.

IV. Tomonlarning majburiyatlari

4.1. Oliy ta‘lim tashkiloti tomonidan:

- 4.1.1. Talabaning kasbiy amaliyoti doirasida o‘qitishni tashkil etish, talabalar amaliyotini o‘tkazish.
- 4.1.2. “Kelajakka qadam” dasturi doirasida maqsadli kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish hamda kasbiy amaliyot dasturini ishlab chiqish.
- 4.1.3. Korxonaga bitiruvchi to‘g‘risida ma‘lumotlar, tavsifnomalar berish.
- 4.1.4. Ish beruvchining buyurtmasiga ko‘ra tanlov g‘olibi bo‘lgan talabani amaliyotga yo‘llash va amaliyot davrida talabaga oylik to‘lov to‘lash. Bunda, oylik to‘lovning aniq miqdorini (oylik to‘lov miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha) Komissiya tomonidan belgilanishini hamda kasbiy amaliyot boshlanishidan avval 1 hafta muddat ichida amalga oshirib borishni ta‘minlash.
- 4.1.5. Korxona uchun yuqori malakali kadrlarni maqsadli tayyorlash, ularni hamkorlikda ishga joylashtirish.
- 4.1.6. Talabaning amaliyot va o‘qishni muvaffaqiyatli tamomlashi, shartnomada tuzgan korxonada belgilangan muddatda ishga kirishi va ishlab berishini monitoring qilib borish va bu borada tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- 4.1.7. Har o‘quv yili uchun korxona bilan kelishilgan holda talabalar amaliyot rejasi va dasturini tuzish, tasdiqlash.

4.2. Korxona tomonidan:

- 4.2.1. Talabalarning amaliyotini o‘tkazishni amaliyot dasturiga muvofiq tashkil etish.
- 4.2.2. Talabaning kasbiy amaliyoti doirasida o‘qitishni tashkil etish, talabalar amaliyotini o‘tkazish.
- 4.2.3. Korxonada kasbiy amaliyotni o‘tagan talabaning o‘qishi yakunlangandan so‘ng, ushbu tashkilotda ish bilan ta‘minlash.
- 4.2.4. Amaliyot o‘tayotgan talabalarga amaliyot rahbarligi uchun korxonadan malakali mutaxassislarni rahbar etib biriktirish.
- 4.2.5. Amaliyot o‘tash uchun amaliyotchilarga zarur bo‘lgan texnik hujjat va ma‘lumotlar bilan tanishishlariga sharoit yaratish.
- 4.2.6. Ishlab chiqarishdagi yuzaga kelgan muammolarga birgalikda ilmiy yechim topish, uni hal qilishda hamkorlikni amalga oshirish.
- 4.2.7. Korxonani yangi texnologiya va uskunalar bilan jihozlashda, mavjud uskunalarini modernizatsiya qilishda talabalar ishtirok etishini ta‘minlash.
- 4.2.8. Ushbu shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, ya‘ni kasbiy amaliyot dasturi asossiz ravishda muddatidan oldin to‘xtatilganda yoki talaba o‘qishi yakunida ish bilan ta‘minlanmagan taqdirda, kasbiy amaliyotni tashkil etishda hamda amaliyot dasturi bo‘yicha qilingan xarajatlarni oliy ta‘lim tashkiloti orqali “O‘zmilliybank” AJ hisob raqamiga o‘tkazish.

4.3. Talaba tomonidan:

- 4.3.1. Kasbiy amaliyot dasturida belgilangan vazifalarni to‘liq bajarish.
- 4.3.2. Kasbiy amaliyotda belgilangan muddat davomida o‘z vaqtida kelib-ketish hamda unumli foydalanish.
- 4.3.3. Kasbiy amaliyot davrini uzluksiz, to‘liq o‘tash.
- 4.3.4. O‘qishni muvaffaqiyatli tamomlagandan so‘ng bir oy muddatda ushbu amaliyot o‘tagan korxonaga ishga kirish va kamida 12 oy muddat muayyan tashkilotda ishlash.
- 4.3.5. Ushbu shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda, ya‘ni kasbiy amaliyot dasturi bo‘yicha amaliyotga uzluksiz ishtirok etmasdan, amaliyot davrini muddatidan oldin to‘xtatishiga sababchi bo‘lgan taqdirda, o‘qish davrini muvaffaqiyatli yakunlamaslik, o‘qishi yakunlangandan so‘ng, ushbu korxonada ishlashdan bosh tortganda, ishdan bo‘shashga sabab bo‘luvchi holatlarni sodir etganda yoxud ushbu shartnoma shartlarini buzganda kasbiy amaliyot dasturi bo‘yicha qilingan xarajatlarni oliy ta‘lim tashkiloti orqali “O‘zmilliybank” AJ hisob raqamiga o‘tkazish.

V. Shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish

- 5.1. Shartnoma tomonlar uni imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi.
- 5.2. Shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 (ikki) yil amal qiladi.

VI. Qo‘shimcha shartlar

- 6.1. Tomonlarning yozma murojaatiga ko‘ra ushbu hamkorlik shartnomasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida" 2025-yil 14-fevraldagi PQ-61-son qarori hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri hamda "O'zmilliybank" AJ Boshqaruvi raisi tomonidan 2025-yil " "_____da imzolangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchi talabalarining amaliyot o'tash xarajatlarini moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'rsida"gi qo'shma qaroriga zid bo'lmagan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

- 6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha tomonlar samarali natijaga erishish maqsadida o'zaro kelishuv asosida, qo'shimcha kelishuvlar va rejalar qabul qilishi va tasdiqlashi mumkin. Mazkur hujjatlar ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

VII. Nizolarni hal qilish tartibi

- 7.1. Ushbu shartnoma yuzasidan yoki u bilan bog'liq holda tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizo va ziddiyatlar tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.
- 7.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, shartlarini o'zgartirish, bandlarining buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar bo'yicha tomonlar, amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.
- 7.3. Talabalar kasbiy amaliyot o'qitishni tashkil etish va o'tkazishda tomonlar Ta'lim to'g'risidagi hamda Mehnat qonunchiligiga binoan ish olib borishlari shart.

VIII. Fors-major holatlari

- 8.1. Fors-major holatlariga duchor bo'lgan tomon boshqa tomonlarni 10 (o'n) kalendar kun ichida yozma ravishda xabardor qilishi shart.
- 8.2. Fors-major holatlari 6 (olti) oydan ortiq davom etsa, tomonlardan har biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Konfidensiallik

- 8.1. Tomonlar ushbu shartnoma doirasida olgan tegishli ma'lumotni maxfiy deb hisoblaydilar va bu ma'lumotni uchinchi shaxslarga oshkor etmaslik majburiyatini oladilar.

X. Yakunlovchi qoida

- 9.1. Korxona tanlov g'oliblari tomonidan individual kasbiy amaliyot dasturini muvaffaqiyatli tugatgan talabani ishga olishi lozim, aks holda, individual kasbiy amaliyot dasturida o'qitish uchun "O'zmilliybank" AJ tomonidan ajratilgan pul mablag'lari oliy ta'lim tashkilotiga 20 kun muddatda qaytariladi, o'z navbatida, ushbu mablag' 10 kun muddatda "O'zmilliybank" AJga o'tkazib beriladi.

X. Tomonlarning rekvizitlari va imzolari

Oliy ta'lim tashkiloti

Pochta manzili:

100100, Toshkent shahar,, 25-uy,

E-mail:

Telefon:, Faks:

Rekvizitlari:

O'zR Moliya vazirligi g'aznachiligi

H/R: 2340200030010000.....

STIR: 201122919; MFO: 000.....

Markaziy bank HKKM Toshkent shahar

Bosh Boshqarmasi

Sh/hv: 400110860262877094.....

STIR: 2010.....

Korxona

Rektor _____ F.I.Sh.

Rahbar _____ F.I.Sh.

Talaba

_____ F.I.Sh.

*“Kelajakka qadam” dasturi doirasida
Talabalarni kasbga tayyorlash va kasbiy
amaliyotini tashkil etish tartibiga
3-ilova*

**“O‘zmilliybank” AJ va _____ Oliy ta’lim tashkiloti
o‘rtasida bitiruvchi talabalarning amaliyotlarini moliyalashtirish to‘g‘risida
KELISHUV SHARTNOMASI № _____**

Toshkent sh.

“ _____ ” _____ 2026-yil

“O‘zmilliybank” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – **“Bank”**) nomidan ishonchnomaga asosan harakat qiluvchi Boshqaruv Raisi o‘rinbosari B.Mirdovdov, bir tomondan hamda _____ **oliy ta’lim tashkiloti** (keyingi o‘rinlarda – **“OTT”**), ikkinchi tomondan, birgalikda **“Tomonlar”** deb yuritilib, quyidagilar haqida ushbu kelishuvni tuzdilar.

I. Kelishuvning maqsadi

1.1. Ushbu kelishuv O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–61-son qarori asosida “Kelajakka qadam” dasturi doirasida talabalarning haq to‘lanadigan kasbiy amaliyotini moliyalashtirish mexanizmini Bank va OTT o‘rtasida huquqiy tartibga solish maqsadida tuzildi.

1.2. Ushbu kelishuv asosida Bank OTTga pul mablag‘larini talabalar amaliyotini moliyalashtirish hamda amaliyot dasturi doirasida talabani xorijiy amaliyotni o‘tash zarurati yuzaga kelganda, ish beruvchi korxona (tashkilot)ning asoslangan taklifiga ko‘ra maxsus elektron platforma orqali OTTga yuborgan buyurtmanomasiga muvofiq talabani chet eldagi oliy ta’lim tashkiloti hamda korxonalarga qisqa muddatli o‘quv kurslarini moliyalashtirish maqsadida ajratadi, OTT esa ushbu mablag‘lardan faqat uch tomonlama shartnomalar (OTT, Korxona va Talaba o‘rtasida tuzilgan shartnoma) asosida talabalar amaliyotini moliyalashtirish uchun foydalanadi.

II. Moliyalashtirish mexanizmi

2.1. Bank mablag‘larni OTTga **maxsus elektron platforma orqali tasdiqlangan buyurtmanomalar** hamda uch tomonlama shartnomalar (OTT, Korxona va Talaba o‘rtasida tuzilgan shartnoma) asosida ajratadi. Ushbu platformaning ishdan chiqish vaqtida mazkur hujjatlarning tasdiqlangan qog‘oz varianti qabul qilinadi.

2.2. Amaliyotning har bir oyi uchun pul mablag‘lari Bank tomonidan alohida-alohida ajratiladi hamda OTT tomonidan taqdim etilgan amaliyotga doir tegishli oylik monitoring hisobotiga asosan moliyalashtiriladi.

2.3. Bank tomonidan o‘tkazilgan mablag‘lar OTTning alohida hisobraqamiga kelib tushadi va OTT tomonidan amaliyot dasturiga muvofiq talabani respublikadagi kasbiy amaliyoti uchun yoki chet eldagi oliy ta’lim tashkiloti hamda korxonalarga qisqa muddatli o‘quv kurslariga yuborilish xarajatlari uchun maqsadli sarflanishi mumkin.

2.4. OTT Bank mablag‘larini boshqa ehtiyojlarga yo‘naltirishga **haqli emas**.

III. Bankning huquq va majburiyatlari

3.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. OTTdan har bir talaba bo‘yicha moliyaviy va monitoring hisobotlarini talab qilish.

3.1.2. Maxsus elektron platforma orqali amaliyot davomati va bandlik holatini tekshirish.

3.1.3. Amaliyot uchun yo‘naltirilgan mablag‘larning maqsadsiz foydalanishi aniqlanganda, ushbu mablag‘larni OTTdan qaytarishni talab qilish.

3.2. Bankning majburiyatlari:

3.2.1. Maxsus elektron platforma orqali OTT tomonidan Bankka yuborilgan hujjatlarning talablarga muvofiqligini tekshirish.

3.2.2. Hujjatlar to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi aniqlangach, maxsus elektron platformada buyurtmanomani tasdiqlash.

3.2.3. Tasdiqlangan buyurtmanomalar asosida amaliyot dasturi bo'yicha oylik to'lovni OTT hisobraqamiga kasbiy amaliyot boshlanishidan avval bir (1) hafta muddat ichida o'tkazib berish.

IV. Oliy ta'lim tashkilotining huquqlari va majburiyatlari

4.1. OTT quyidagi huquqlarga ega:

4.1.1. Amaliyot sifati, davomati yoki 3 tomonlama shartnomaning (OTT, Korxona va Talaba o'rtasida tuzilgan shartnoma) shartlari buzilishi aniqlangan taqdirda, talabani dasturdan chiqarish va moliyalashtirishni to'xtatish haqida Bankka taklif kiritish.

4.1.2. Talaba va korxonaga regress talablar qo'yish.

4.2. OTTning majburiyatlari:

4.2.1. Amaliyot dasturi doirasida shakllantiriladigan buyurtmanomani to'g'ri shakllantirish va rasmiylashtirish.

4.2.2. Amaliyot uchun ajratiladigan mablag'larni Bankdan olish uchun Komissiya (OTT bitiruvchi bosqich talabalarining haq to'lanadigan amaliyotlarini tashkil etish maqsadida bitiruvchilar o'rtasida ochiq tanlov o'tkazish uchun "O'zmilliybank" AJ "Kelajakka qadam" markazi bilan hamkorlik kelishuvini imzolagan har bir OTTda alohida tuziladigan tanlov komissiyasi) qaroriga muvofiq buyurtmanoma, uch tomonlama shartnomalarni (OTT, Korxona va Talaba o'rtasida tuzilgan shartnoma) shakllantirib, individual kasbiy amaliyot dasturi, OTT va ish beruvchi korxona o'rtasida tuzilgan shartnoma hamda Komissiya bayonnomasini ilova qilgan holda maxsus elektron platformaga kasbiy amaliyot boshlanishidan avval ikki (2) hafta muddat ichida joylashtirish.

4.2.3. Bankdan olingan mablag'lardan faqat buyurtmanoma hamda unga ilova qilingan uch tomonlama shartnomalarda (OTT, Korxona va Talaba o'rtasida tuzilgan shartnoma) nazarda tutilgan talabalarning kasbiy amaliyotini moliyalashtirish uchun foydalanish.

4.2.4. Mablag'larning oylik sarflanishi bo'yicha Bankka elektron moliyaviy hisobot taqdim etish.

4.2.5. Mablag'larning maqsadsiz foydalanilishi aniqlangan taqdirda, Talaba yoki Korxona tomonidan qaytarilishi lozim bo'lgan mablag'larni o'ttiz (30) kun muddat ichida Bankka **to'liq hajmda** qaytarilishini ta'minlash.

4.2.6. Talabaning amaliyoti to'xtatilgan, uch tomonlama shartnoma (OTT, Korxona va Talaba o'rtasida tuzilgan shartnoma) shartlari buzilgan yoki ishga joylashishi ta'minlanmagan hollarda Bankni darhol xabardor qilish.

4.2.7. Bank tomonidan aniqlangan qonunbuzarliklar, noto'g'ri hisobotlar yoki soxta ma'lumotlar uchun to'liq moliyaviy javobgarlikni o'z zimmasiga olish.

4.2.8. Bankning tekshiruvlari, audit va monitoring jarayonlarida to'liq hamkorlik qilish.

V. Mablag'larni qaytarish majburiyati

5.1. Quyidagi holatlar aniqlanganda, OTT Bankdan olingan mablag'larni Bankka to'liq qaytaradi:

Talaba tomonidan uch tomonlama shartnoma (OTT, Korxona va Talaba o'rtasida tuzilgan shartnoma) shartlarining buzilishi;

amaliyot va o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan Talabaning Korxona tomonidan bir oy muddat ichida ishga qabul qilinmasligi yoki ishga qabul qilingach, ishda o'n ikki (12) oy davomida ishlashi ta'minlanmasligi;

OTT tomonidan mablag'larning maqsadsiz ishlatilishi;

monitoring natijasida amaliyot haqiqiy o'tkazilmaganligi aniqlanishi.

VI. Fors-major holatlari

6.1. Kelishuv tuzilgandan keyin, agar ushbu kelishuvni bajarmaslik suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, embargolar, urushlar yoki harbiy harakatlar, zarbalar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlarning hech biri ushbu kelishuv bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

VII. Nizolarni hal qilish

7.1. Tomonlar o'rtasida nizolar yuzaga kelgan taqdirda, ushbu Kelishuvni amalga oshirishda yoki u bilan bog'liq hollarda, tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish uchun barcha choralarni ko'radilar.

7.2. Mazkur nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda, nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda hal etiladi.

VIII. Kelishuvning amal qilish muddati

8.1. Kelishuv tomonlar uni imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va majburiyat to‘liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

IX. Yakuniy qoidalar

- 9.1. Mazkur Kelishuv bilan tartibga solinmagan barcha munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–61-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri hamda “O‘zmilliybank” AJ Boshqaruvi raisi tomonidan 2026-yil “13”-fevralda imzolangan “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchi talabalarining amaliyotlarini moliyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori hamda amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi.
- 9.2. Ushbu Kelishuv bo‘yicha OTT Bank oldida moliyaviy javobgar hisoblanadi.
- 9.3. Kelishuv bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikkita bir xil nusxada, har bir tomon uchun bittadan tuzildi.

X. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari

“Ozmilliybank” AJ

Rahbar _____
(Imzo) (F.I.Sh.)

Oliy ta’lim tashkiloti

Rektor _____
(Imzo) (F.I.Sh.)